

Mening sodiq yordamchilarim



Insonning beshta sodiq yordamchisi bor: ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish va sezish a'zolari. Ular yordamida atrofimizdagi olamni o'rganamiz, bilamiz, anglaymiz.



Bu a'zolarning har biri nima uchun kerakligini eslab olaylik.



Ko'rish



Eshitish



Ta'm bilish



Hid bilish



Sezish



Siz sezgi a'zolari yordamida ko'rayotgan, eshitayotgan, sezayotgan hamma narsa haqidagi ma'lumotlar bosh miyaga kelib tushadi. **Miya** – insonning eng muhim a'zosi. U atrofimizdagi olam haqida barcha ma'lumotlarni qayta ishlab, xotiramizga joylaydi. U bizning harakatlanishimiz, o'ylashimiz, gaplashishimiz, his-tuyg'ularimiz, sezgilarimizni boshqaradi. Miya inson tanasining boshqaruv markazidir.

Biz atrofimizdagi olam haqida ma'lumotning katta qismini **ko'rish** orqali olamiz.



Quloq esa nafaqat tovushlarni eshitishga, balki muvozanatni saqlashga ham yordam beradi.



Burun turli hidrlarni – masalan, olovning tutunini, gulning hidini sezishga yordam beradi.



Til besh xil ta'mni ajratishga yordam beradi.



Teri esa bizga jismlar haqida ma'lumot beradi: issiqmi, sovuqmi, silliqmi yoki dag'almi.





Rasmlarni diqqat bilan o'rganib chiqing. Bu nimalarning surati? Nimalar insonda ham, hayvonlarda ham bor?

1. Hayvonlarda nechta sezgi a'zosi bor?
2. Hayvonlarga sezgi a'zolari nima uchun kerak?



Quyidagi belgilarni qaysi sezgi a'zolari orqali bilamiz?

Yumshoq,
iliq,
uchli.

Ko'k,
yumaloq,
harakatchan.

Mazali,
shirin,
achchiq.

Xushbo'y,
hidi yoqimli,
o'tkir hidli.

Chug'ur-chug'ur,
qichqiriq,
jarang.



Sezgi a'zolari orqali qanday ma'lumotlarni olishimizni eslang.